## 2023- yilning yanvar-mart oylarida Xorazm viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

**YAHM hajmi, *mlrd. so‘m***

**6 460,6**

**YAHM o‘sish sur’ati**

**104,4 %**

**YAHM deflyator indeksi**

**115,8 %**




Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023- yilning yanvar-martida Xorazm viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 6 460,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda 4,4 % ga o‘sdi.

YAHM deflyator indeksi 2022- yilning yanvar-martidagi narxlariga nisbatan115,8 %ni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Xorazm viloyatining qo‘shgan hissasi 3,3 % ga yetdi.



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

## 2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

| | *Mlrd. so‘m* | | ***O‘sish sur’atlari,*** *o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da* |
|---|---|---|---|
| | ***2022- yil*** | ***2023- yil*** | |
| **I. YAHM, jami** | **5 343,3** | **6 460,6** | **104,4** |
| *shu jumladan:* | | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 5 115,3 | 6 240,2 | 104,2 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 228,0 | 220,4 | 109,9 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **5 115,3** | **6 240,2** | **104,2** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **1 601,1** | **1 961,2** | **105,5** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **1 225,8** | **1 577,0** | **102,8** |
| sanoat | 889,8 | 1 184,4 | 102,8 |
| qurilish | 336,0 | 392,6 | 102,9 |
| **xizmatlar** | **2 288,4** | **2 702,0** | **104,0** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 364,0 | 417,6 | 100,6 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 362,3 | 434,7 | 108,9 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 1 562,1 | 1 849,7 | 103,6 |



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM **3 293,6** ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **2,6** % ga yuqoridir.

**2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi**
*(ming so‘mda)*




**2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari**
*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)*








# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi** *(jamiga nisbatan % da)*

| | *2022- yil* | *2023- yil* |
|---|---|---|
| **I. YAHM, jami** | **100,0** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 95,7 | 96,6 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 4,3 | 3,4 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **100,0** | **100,0** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **31,3** | **31,4** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **24,0** | **25,3** |
| sanoat | 17,4 | 19,0 |
| qurilish | 6,6 | 6,3 |
| **xizmatlar** | **44,7** | **43,3** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 7,1 | 6,7 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 7,1 | 7,0 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 30,5 | 29,6 |

# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi** *(jamiga nisbatan % da)*

**2022- yil**




| | |
|---|---|
| *Qishloq, o‘rmon va baliqchilk xo‘jaligi* | **31,3%** |
| *Sanoat* | **17,4%** |
| *Qurilish* | **6,6%** |
| *Xizmatlar* | **44,7%** |

**2023- yil**




| | |
|---|---|
| *Qishloq, o‘rmon va baliqchilk xo‘jaligi* | **31,4%** |
| *Sanoat* | **19,0%** |
| *Qurilish* | **6,3%** |
| *Xizmatlar* | **43,3%** |

***Yalpi qo‘shilgan qiymat***

***Mahsulotlarga sof soliqlar***

2023- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning **96,6** % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa **3,4** % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 31,4 % ni, sanoat tarmog‘i 19,0 % ni, qurilish 6,3 % ni va xizmatlar sohasi 43,3 % ni tashkil qildi.





# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**2023- yilning yanvar-mart oylarida YAHM o‘sishida tarmoqlarning hissasi** *(jamiga nisbatan % da)*




YAHM o‘sishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 1,6 f.p. (2022-yilning yanvar-martida – 0,6 f.p.), sanoat tarmog‘i – 0,5 f.p. (2022-yilning yanvar-martida – 2,1 f.p.), qurilish tarmog‘i – 0,2 f.p. (2022-yilning yanvar-martida – 0,2 f.p.) va xizmat ko‘rsatish sohasi 1,7 f.p. (2022-yilning yanvar-martida – 2,1 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘sishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. (2022-yilning yanvar-martida – 0,5 f.p.)ga ko‘paydi.





# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

## 2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*

| | 2022- yil | 2023- yil |
|---|---|---|
| YAHM | 5,5 | 4,4 |
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 1,9 | 5,5 |
| Sanoat | 14,7 | 2,8 |
| Qurilish | 2,9 | 2,9 |
| Xizmatlar | 4,8 | 4,0 |

2023- yilning yanvar-martida YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida105,5% (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 31,4 %), sanoatda – 102,8 % (19,0 %), qurilishda – 102,9 % (6,3 %), xizmatlar sohasida -104,0% (43,3 %)ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 100,6 % (6,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 108,9 % (7,0 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,6 % (29,6 %)dan iborat bo‘ldi.





# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

## 2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha deflyator indeksi

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*










2023- yilning yanvar-martida YAHM deflyatori indeksi 2022- yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 115,8 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko’rsatkichlari sanoatda – 129,5 % va qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog’ida – 116,1 % qayd etildi.









# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi**

| | Hajmi, *mlrd.so‘m* | Ulushi, *% da* |
|---|---|---|
| 2022- yil | 3 365,0 | 65,8 |
| 2023- yil | 4 036, 0 | 64,7 |



2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 4 036,0 mlrd.so‘m (2022- yilning yanvar-mart oylarida – 3365,0 mlrd.so‘m)ni tashkil qildi. YAHMdagi ulushi 64,7 % (2022- yilning yanvar-mart oylarida – 65,8 %)ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik-ning YAHMdagi ulushi-ning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxo-nalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

